

# YASHIL

## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№10**

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>®</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

*Elektron nashr. 121 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyeich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                  |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....                                                | 13  |
| Muxiddin Kalonov                                                                                                 |     |
| MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....                                 | 19  |
| Quliyev Begimqul Melikovich                                                                                      |     |
| SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....         | 24  |
| Sabirova Oysuluv Shonazarovna                                                                                    |     |
| KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI .....                                    | 30  |
| Musayeva Shoirazimovna                                                                                           |     |
| IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....                   | 35  |
| Alabayev Sobitxon                                                                                                |     |
| MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....                                             | 40  |
| Zakirov Ansabxon Akaidinovich                                                                                    |     |
| ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....                                                        | 48  |
| Саидахмедова Аида Мирзаевна                                                                                      |     |
| KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH .....                                         | 55  |
| Mirzayev Ozod Furkatovich                                                                                        |     |
| AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....       | 59  |
| Qodirov Farrux Ergash o'g'li                                                                                     |     |
| BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....             | 64  |
| Yuldashev Adhamjon Axadjonovich                                                                                  |     |
| SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....                                | 69  |
| Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li                                                                               |     |
| МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА .....                                   | 73  |
| Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович                                                             |     |
| ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО .....    | 78  |
| Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна                                                                               |     |
| RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI .....                             | 84  |
| Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li                                                                              |     |
| TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....                                  | 90  |
| Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li                                                                                 |     |
| O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR .....                  | 96  |
| Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li                                                                               |     |
| YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....                           | 102 |
| Allayarov Suxrob Rustamovich                                                                                     |     |
| O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI ..... | 107 |
| Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna                                                       |     |



|                                                                                         |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI<br>OMILLARI..... | 114 |
| Durumov Temur G'olibovich                                                               |     |



# TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH

**Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li**

Namangan davlat texnika universiteti

tayanch doktranti

[ngofurjon@gmail.com](mailto:ngofurjon@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0004-8715-7840>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada to'lovga qobiliyatsizlik holatidagi korxonalarda tugatish balansini tuzish, shuningdek, tugatish jarayonidagi asosiy buxgalteriya hujjati hisoblangan oraliq tugatish balansini tuzish, yuridik shaxsni tugatish jarayonida kreditorlarning talablarini qondirish navbati, qarzdorning moliyaviy holatini aniqlash va uning mol-mulkini oqilona taqsimlash, moliyaviy tahlilda balansning ahamiyati bo'yicha masalalar ko'rilgan va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** to'lovga qobiliyatsizlik, bankrotlik, moliyaviy sog'lomlashtirish, tugatish balansini, oraliq tugatish balansini, tugatish komissiyasi.

**Abstract:** This article discusses the issues of drawing up a liquidation balance sheet in insolvent enterprises, as well as the preparation of an interim liquidation balance sheet, which is the main accounting document in the liquidation process, the order of satisfying creditors' claims in the liquidation process of a legal entity, determining the financial condition of the debtor and rational distribution of his property, the importance of the balance sheet in financial analysis, and develops recommendations for improvement.

**Key words:** insolvency, bankruptcy, financial restructuring, liquidation balance sheet, interim liquidation balance sheet, liquidation commission.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы составления ликвидационного баланса на неплатежеспособных предприятиях, а также составления промежуточного ликвидационного баланса, который является основным учетным документом в процессе ликвидации, порядок удовлетворения требований кредиторов в процессе ликвидации юридического лица, определение финансового состояния должника и рациональное распределение его имущества, значение баланса в финансовом анализе, а также разрабатываются рекомендации по его совершенствованию.

**Ключевые слова:** несостоятельность, банкротство, финансовая реструктуризация, ликвидационный баланс, промежуточный ликвидационный баланс, ликвидационная комиссия.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasining "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi Qonunining 86-moddasida qarzdorning moliyaviy ahvolini tahlil qilish tartibi va mazmuniga oid muhim qoidalar belgilab berilgan. Unga ko'ra, qarzdorning mol-mulki sud xarajatlari hamda sud boshqaruvchilariga haq to'lash xarajatlarini qoplash uchun yetarli bo'lishi



hamda qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyati yoki imkoniyati yo'qligini aniqlash maqsadida moliyaviy tahlil o'tkazilishi shart etib belgilangan. Qonun talablari asosida tayinlangan muvaqqat boshqaruvchi "qarzdorning moliyaviy ahvolini, shu jumladan qarzdorning mol-mulki bo'lsa, shu mol-mulknı inventarizatsiya qilish natijalarini va mulk huquqining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni tahlil qilish asosida qarzdorning to'lov qobiliyatini tiklash mumkinligi yoki mumkin emasligi to'g'risidagi takliflarni, to'lovga qobiliyatsizlikning keyingi tartib-taomillarini joriy etish maqsadga muvofiqligini asoslantiruvchi ma'lumotlarni tayyorlaydi.

Muvaqqat boshqaruvchi moliyaviy tahlil natijasida qarzdorning moliyaviy ahvoli to'g'risida quyidagi xulosalardan birini tayyorlaydi:

to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlanmaganligi to'g'risida;

agar vaqtincha to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlansa, to'lov qobiliyatini tiklash tartib-taomillaridan birini joriy etishning asoslari mavjudligi to'g'risida;

agar doimiy to'lovga qobiliyatsizlik alomatlari aniqlansa, to'lov qobiliyatini tiklash imkoniyati mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risida" [1].

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 55- moddasida yuridik shaxsni tugatish tartibi belgilab berilgan, unga ko'ra, "yuridik shaxsni tugatish uning huquq va burchlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxsga o'tmasdan bekor qilinishiga olib keladi"[2].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qonunchilikda tugatish balansi aniq va qat'iy tarzda belgilangan bo'lishiga qaramasdan, ushbu tushunchaga oid ilmiy-tahliliy yondashuv ko'plab iqtisodchi va mutaxassislar tomonidan keng o'rganilgan.

Xususan, I. Davlatov tugatish balansini tashkilot faoliyatining yakunlanishi, ya'ni "kompaniyaning vafoti" belgisi sifatida baholaydi. Unga ko'ra, "agar tashkilot tugatilishi lozim bo'lsa, likvidatsiya komissiyasi tomonidan tegishli likvidatsiya balansi tuziladi. Bu jarayon ikki bosqichda amalga oshirilishi mumkin: birinchi bosqichda — tugatilishi kerak bo'lgan tashkilotning moliyaviy holati aks ettirilgan balans tuziladi, ikkinchi bosqichda esa — tugatish natijalarini o'zida mujassam etgan yakuniy moliyaviy hisobot shakllantiriladi" [3].

Shuningdek, Islomov fikriga ko'ra, "tugatish balansi tuzish — tashkilotni tugatish jarayonining yakuniy bosqichi sifatida qaralishi lozim. Ushbu balans tashkilotning mol-mulk tarkibini, uning shakllanish manbalari — jumladan, shaxsiy (o'z) kapitali va majburiyatlarini — aniq va xolis tarzda aks ettirishi kerak. Shu tariqa, likvidatsiya balansi orqali kreditorlarning manfaatlari, ya'ni ularning moliyaviy talablari va tashkilot aktivlari bilan bog'liq huquqlari o'z ifodasini topadi.

Oraliq tugatish balansi esa tashkilotning moliyaviy va mulkiy holatini ko'rsatuvchi ko'rsatkichlar tizimidan iborat bo'lib, u aniq vaqtidagi real tugatish massasini (aktivlarini), kreditorlar tomonidan bildirilgan va bildirilmagan talablar summasini hamda tashkilotning shaxsiy kapitalini (passivlarini) o'z ichiga oladi" [4].

R. Dustmuradov va I. Davletovlar fikriga ko'ra, "oraliq tugatish balansi tashkilot tugatish jarayonidagi asosiy buxgalteriya hujjatlaridan biri hisoblanadi. Unda jamiyatning aktivlari real qiymatda, kreditorlar talablari esa aniq miqdorda aks ettiriladi, bu esa keyingi tugatish natijalarini bashorat qilish imkonini beradi" [5].

Rossiyalik mutaxassis, L. Sholban esa "oraliq tugatish balansini tugatish komissiyasi tomonidan belgilangan muddat ichida kreditorlar tomonidan bildirilgan talablarni qondirishdan avval tuziladigan moliyaviy hisobot shakli sifatida ta'riflaydi. Uning asosiy maqsadi — tugatilayotgan korxonaning aniq moliyaviy holatini belgilashdan iborat"[6].


Yana bir rossiyalik mutaxassis Feylingning ta'kidlashicha, "tashkilot tugatilayotganda likvidatsiya balansi tuzilishi zarur, chunki ushbu hujjat asosida mulk egalari, kreditorlar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan boshqaruv qarorlari qabul qilinadi"[7].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraktsiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduktsiya, tizimli yondashuv, mantiqiy va sabab-oqibat tahlil usullaridan keng foydalanilgan

## TAHLIL VA NATIJALAR

Muallif tomonidan bankrotlik va to'lovga qobiliyatsizlikning iqtisodiy mohiyatini farqlash zarurligi to'g'risida ilgari surilgan qarashdan kelib chiqqan holda, shunga mos ravishda ushbu holatlarni aks ettiruvchi iqtisodiy jarayonlarni buxgalteriya hisobida alohida yoritishni maqbul, deb hisoblaymiz. Bu yondashuv, tegishli hisob toifalarining iqtisodiy mazmuniga aniqlik kiritish, shuningdek, hisob siyosatini yanada ratsionallashtirish imkonini beradi.



1.-rasm. Korxonalarda to'lovga qobiliyatsizlik holatlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish modeli (Muallif ishlanmasi)

Korxonada moliyaviy nochorlik holatlarini hisobga olishga doir buxgalteriya modeli 1-rasmda berilgan bo'lib, fikrimizcha, ushbu hisob ikki o'zaro qarama-qarshi yo'nalishda — mulkchilikka munosabat nuqtai nazaridan — tashkil etiladi. Boshqacha aytganda, moliyaviy nochorlikni aks ettiruvchi hisob yo'nalishlari aktivlarni boshqarish va majburiyatlar tuzilmasini qayta baholash asosida shakllanadi. Birinchi yo'nalish mulkning yo'qotilishi yoki to'liq bekor qilinishi bilan bog'liq. Ikkinchi yo'nalish esa mulkni saqlash va qayta tiklashga qaratilgan.

Oraliq tugatish balansi yuridik shaxsni tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan muassislar (ishtirokchilar) yoki tegishli organ tomonidan tasdiqlanadi. Agar yuridik shaxsni tugatish to'g'risidagi qaror sud tomonidan qabul qilingan bo'lsa, oraliq tugatish balansi yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Tugatish balansi — bu to'lovga qobiliyatsizlik holatida yuridik shaxsning mol-mulki va moliyaviy majburiyatlarini aniqlash, shuningdek kreditorlar bilan munosabatlarni tartibga solish maqsadida tuziladigan moliyaviy hujjatdir. Ushbu balansda yuridik shaxsning aktivlari, qarzlari, shuningdek kreditorlarning qo'ygan talablari va ularning to'lanish tartibi keng ko'lamda aks ettiriladi.

To'lovga qobiliyatsizlik sharoitida tugatish balansi moliyaviy barqarorlikning yo'qligi, ya'ni mol-mulkning kreditorlar talablarini to'liq qoplamasligi holatini hisobga olgan holda tuziladi. Bu balans kreditorlar talablarining manfaatlarini himoya qilish, qarzdorning moliyaviy holatini aniqlash va uning mol-mulkini oqilona taqsimlash uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, tugatish balansi yuridik shaxsni tugatish, bankrotlik yoki boshqa moliyaviy qayta tashkil etish jarayonlarida asosiy huquqiy hujjat sifatida xizmat qiladi. Ushbu hujjatning tuzilishi va tasdiqlanishi kreditorlarning huquqlarini himoya qilish, qarzdorning moliyaviy mas'uliyatini ta'minlash hamda to'lovga qobiliyatsizlik holatini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish uchun asos bo'ladi.

Oraliq tugatish balansi — yuridik shaxsni tugatish jarayonining muayyan bosqichida tuziladigan va mol-mulk tarkibi, kreditorlar tomonidan qo'yilgan talablar hamda ularni ko'rib chiqish natijalari haqidagi axborotni o'z ichiga olgan moliyaviy hujjat hisoblanadi. Ushbu balansning asosiy vazifasi — yuridik shaxsning moliyaviy holatini to'liq va obyektiv baholash, kreditorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda tugatish jarayonini tartibga solishdir.

Tugatuvchi oraliq tugatish balansini kreditorlar talablari bildirish uchun belgilangan muddat yakunlanganidan so'ng tuzadi. Bu hujjatda yuridik shaxsning mol-mulking tarkibi va uning moliyaviy majburiyatlari, shuningdek kreditorlar talablarining ro'yxati va ularni ko'rib chiqish natijalari to'liq aks ettiriladi. Shu tariqa, oraliq tugatish balansi yuridik shaxsning moliyaviy ahvolini aniqlash va uning tugatilishi jarayonidagi majburiyatlarini adolatli taqsimlash imkonini yaratadi.

Yuridik shaxsni tugatish to'g'risidagi qaror muassislar yoki tegishli vakolatli organ tomonidan qabul qilingan taqdirda, oraliq tugatish balansi ham ular tomonidan tasdiqlanadi. Agar ushbu qaror sud tomonidan chiqarilgan bo'lsa, oraliq tugatish balansi davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanishi shart.

Shuningdek, oraliq tugatish balansi yuridik shaxsni bankrotlik yoki moliyaviy barqarorlikni tiklash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida muhim monitoring va nazorat vositasi hisoblanadi. U moliyaviy



qayta tashkil etish jarayonlarida yuridik shaxsning faoliyatining bu bosqichidagi xolatini baholash, kreditorlar manfaatlarini ta'minlash hamda moliyaviy qarorlarni asoslashda asosiy huquqiy va moliyaviy hujjat sifatida xizmat qiladi. Amaldagi qonunchilikka ko'ra, tugatuvchi "kreditorlar tomonidan talablarni qo'yish uchun belgilangan muddat tamom bo'lganidan keyin oraliq tugatish balansini tuzadi, bu balans tugatilayotgan yuridik shaxs mol-mulking tarkibi, kreditorlar qo'ygan talablar ro'yxati, shuningdek ularni qarab chiqish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi". [2]

Tugatish balans — bu likvidatsiya davri yakunlanganidan so'ng korxonaning mol-mulki miqdori va manbalari, shuningdek uning hisob-kitob holati haqidagi ma'lumotlarni aks ettiradigan hisobot hisoblanadi. Amaldagi tartibga ko'ra, oraliq tugatish balans quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

Tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki tarkibi;

kreditorlar tomonidan qo'yilgan talablar ro'yxati hamda ularni ko'rib chiqish natijalari.

Ushbu oraliq tugatish balans tugatish komissiyasi tomonidan tuziladi.

Tugatish balansiga turli mutaxassislar tomonidan berilgan ta'riflar tahlili shundan dalolat berdiki, aksariyat ta'riflar mazkur hujjatni mol-mulkni sotish orqali majburiyatlarni qoplash vositasi sifatida qaraydi. Bizning fikrimizcha, tugatish balans turli foydalanuvchilar uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiluvchi axborot bazasi sifatida qabul qilinishi lozim. Bu holat, o'z navbatida, moliyaviy nochorlikning ikki xil ma'nosini tasdiqlaydi: bir tomondan, mulkning yo'qotilishi, ikkinchi tomondan esa mulkni tiklash maqsadida boshqaruvni amalga oshirish imkoniyati va zarurati.

Shu sababli, mulkning yo'qotilishi jihatidan qaralganda, tugatish balans asosiy buxgalteriya hisoboti hujjati hisoblanadi.

Tugatish balans tuzishning iqtisodiy mexanizmi tashkilotning majburiyatlarini navbatma-navbat qondirish, debitorlik qarzlarni qayta tiklash, moddiy boyliklar, asosiy vositalar hamda nomoddiy aktivlarni real yoki shartli ravishda pulga aylantirishga asoslangan. Ushbu jarayonda tashkilotning barcha aktivlari, shu jumladan debitor va kreditor qarzlari pulga aylantirilib, belgilangan ustuvorlik tartibiga muvofiq majburiyatlar to'lanadi.

Yuridik shaxsni tugatish jarayonida kreditorlarning talablarini qondirish navbati O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 56-moddasida belgilangan, unga ko'ra, "yuridik shaxs tugatilayotganida birinchi navbatda fuqarolarning mehnatga oid huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan, alimentlarni undirishdan va mualliflik shartnomalari bo'yicha mukofot to'lash haqidagi talablari, shuningdek hayotiga yoki sog'lig'iga zarar etkazganligi uchun tugatilayotgan yuridik shaxs javobgar bo'lgan fuqarolarning talablari ham tegishli vaqtbay to'lovlarni kapitallashtirish yo'li bilan qanoatlantiriladi" [2].

Birinchi navbatda, yuridik shaxs tomonidan hayot yoki sog'liqqa yetkazilgan zarar uchun javobgarlik yuklatilgan fuqarolarning talablari qondiriladi. Bular qatorida tegishli muddatli to'lovlarni kapitalizatsiya qilish, ma'naviy zararni qoplash, kapital qurilish obyektlarining vayron bo'lishi yoki zararlanishi, qurilishda xavfsizlik talablarining buzilishi hamda bino va inshootlarni xavfsiz ishlatishni ta'minlash bo'yicha majburiyatlar mavjud.

Ikkinchi navbatda, mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan yoki ishlagan xodimlarga chiqish puli, mehnat haqlari va intellektual mulk huquqlari mualliflariga to'lovlar amalga oshiriladi.

Uchinchi navbatda, byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar bajariladi.

To'rtinchi navbatda esa boshqa kreditorlar bilan hisob-kitoblar amalga oshiriladi. Har bir navbatdagi talablar, ulardan oldingi navbat kreditorlari talablari to'liq qondirilgandan so'nggina ta'minlanadi. Ammo yuridik shaxs mol-mulkiga zalog qo'yilgan majburiyatlar bo'yicha talablar bunday tartibdan mustasno bo'lib, ular sotilgan garov predmetidan olingan mablag'lar hisobiga boshqa kreditorlarga nisbatan ustuvor qondiriladi.

Agar garov mol-mulkini sotishdan olingan mablag'lar miqdori talablarni to'liq qondirmasa, ushbu kreditorlarning qolgan talablari to'rtinchi navbatdagi kreditorlar talablari qatorida ko'rib chiqiladi.

Agar yuridik shaxsning mol-mulki talablarni qondirish uchun yetarli bo'lmasa, uni tegishli navbat kreditorlari o'rtasida talablari miqdoriga nisbatan proportsional taqsimlash amalga oshiriladi, agar qonunda boshqacha belgilanmagan bo'lsa.

Tugatish komissiyasi tomonidan kreditor talablarini qondirishdan rad etilishi yoki ularni ko'rib chiqishdan bosh tortilgan taqdirda, kreditor tugatish balans tasdiqlangunga qadar sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'ladi. Sud qaroriga ko'ra, kreditorning talablari tugatilishi rejalashtirilayotgan yuridik shaxsning qolgan mol-mulki hisobiga qondirilishi mumkin.

Tugatish komissiyasi tomonidan talablarni taqdim etish uchun belgilangan muddat o'tganidan keyin kelib tushgan kreditorlik talablari, tugatilishi rejalashtirilayotgan yuridik shaxsning muddatda berilgan kreditor talablari qondirilgandan keyin qolgan mol-mulki hisobiga qondiriladi.

Yuridik shaxs mol-mulking yetishmasligi tufayli qondirilmagan kreditor talablari to'liq yoki qisman to'lanmagan deb hisoblanadi. Shuningdek, tugatish komissiyasi tomonidan tan olinmagan, kreditor tomonidan sudga da'vo bilan murojaat qilinmagan yoki sud qarorlari bilan rad etilgan talablar ham qondirilmagan deb hisoblanadi.



Tugatish buxgalteri tomonidan amalga oshirilgan tugatish buxgalteriya operatsiyalari natijasida tugatish balansini tuziladi. Ushbu balansning aktiv qismida pul mablag'lari hisoblari qoladi, passiv qismida esa tashkilotning moliyaviy holatiga qarab, o'ziga xos manbalar — ustav kapitali, zaxira kapitali va taqsimlanmagan foyda aks ettiriladi. Agar o'ziga xos kapital to'liq yo'qolgan bo'lsa, tugatish balansini nol yoki hatto manfiy qiymat bilan tuzilishi mumkin.

Aktiv va passiv bo'yicha hisoblangan qiymatlar aktiv-netto va passiv-netto, ya'ni mulkning sof bozor qiymatini ifodalaydi. Bu jarayondan keyin auditor va moliyaviy tahlilchi tavsiyalari asosida iqtisodiy, huquqiy, moliyaviy va boshqaruviy qarorlar qabul qilinadi.

Tugatish buxgalteriyasi operatsiyalari barcha aktivlarni pul vositalariga shartli aylantirish va barcha majburiyatlarni pul mablag'lari hisobiga qondirish tartibida tuziladi. Agar hisobdagi pul mablag'lari miqdori barcha qo'yilgan talablarni qondirish uchun yetarli bo'lsa, ushbu mablag'lardan mablag'lar chiqarilishi mijozning buyruqlari va boshqa chiqarishga oid hujjatlar kelib tushish tartibiga (taqvimiy navbatga) muvofiq amalga oshiriladi, agar boshqa tartib qonun bilan belgilanmagan bo'lsa. Agar hisobdagi mablag'lar miqdori barcha talablarni qondirish uchun yetarli bo'lmasa, mablag'lar chiqarilishi quyidagi navbatlarga muvofiq amalga oshiriladi:

Birinchisi navbatda hayot va sog'liqqa yetkazilgan zararni qoplash talablari hamda alimentlar to'lanishiga oid ijro hujjatlari bo'yicha mablag'lar chiqariladi;

Ikkinchi navbatda mehnat shartnomasi yoki kontrakt asosida ishlovchi xodimlarga ish haqi va chiqish to'lovlari to'lanishi hamda intellektual mulk natijalari mualliflariga haq to'lash uchun mablag'lar chiqariladi;

Uchinchi navbatda mehnat shartnomasi yoki kontrakt asosida ishlovchi xodimlarga ish haqi to'lovlari hamda O'zbekiston Respublikasining Pensiya jamg'armasi, ijtimoiy sug'urta jamg'armasi va majburiy tibbiy sug'urta jamg'armasiga o'tkazmalar bo'yicha to'lovlar amalga oshiriladi;

To'rtinchi navbatda byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga, shu jumladan uchinchi navbatga kirmagan barcha tegishli to'lovlar amalga oshiriladi;

Beshinchi navbatda boshqa pul talablarini qondirishga oid ijro hujjatlari bo'yicha mablag'lar chiqariladi;

Oltinchi navbatda boshqa to'lov hujjatlari bo'yicha mablag'lar chiqarilishi taqvimiy navbatga muvofiq amalga oshiriladi.

Bir xil navbatga tegishli talablar bo'yicha mablag'larni chiqarish hujjatlar kelib tushish tartibiga ko'ra amalga oshiriladi.

Tugatish jarayonidagi asosiy buxgalteriya hisoboti hujjati hisoblangan oraliq tugatish balansini tashkilotning barcha aktivlarini, ya'ni uning tugatish massasini hamda kreditorlar talablarini ko'rib chiqish natijalarini aks ettiradi. Shu bilan birga, tugatish massasi faqatgina tugatish ishi ochilgan vaqtda mavjud bo'lgan mol-mulkni emas, balki tugatish jarayoni davomida aniqlangan aktivlarni ham o'z ichiga oladi.

Oraliq tugatish balansini tugatish ishi ochilgan sanada tuziladi va tashkilotning mol-mulkiy holatini aktivlarini realizatsiya qilish yoki tugatish komissiyasi tomonidan xarajatlar amalga oshirilishidan avval aks ettirish maqsadida tayyorlanadi. Bu balansida kreditorlar talablari ko'rib chiqish natijalari ham aks ettirilishi lozim, demak, uni tuzish kreditorlar talablari reestri yopilgandan keyin, ya'ni tugatish boshqaruvchisi tomonidan talablar bildirish uchun belgilangan muddat tugashidan keyin amalga oshirilishi mumkin.

Ushbu muddat davomida bankrotlik holatidagi qarzdorning mol-mulki inventarizatsiya qilinadi va baholanadi. Inventarizatsiya jarayonida aktivlarning sotilganligi haqidagi bitimlar tahlil qilinadi va Qonunga zid kelishgan amaliy bitimlarga nisbatan da'volar ishlab chiqila boshlanadi. Oddiy hollarda tugatish komissiyasi noma'lum shaxslar tomonidan noqonuniy ravishda egallangan aktivlarni qaytarish, vaqtda to'lanmagan debitor qarzlarni bo'yicha foiz va jarimalarni undirish bo'yicha ko'plab sud ishlarida ishtirok etadi, bu esa tugatish massasini sezilarli darajada oshirishi va kreditorlar talablarini qoplash imkoniyatlarini o'zgartirishi mumkin.

Shu bilan birga, kreditorlar tugatish komissiyasi tomonidan tan olingan qarz miqdoriga rozi bo'lmagan taqdirda, arbitraj sudiga da'vo arizasi bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Oraliq tugatish balansini tuzishda tipik balans formasi ma'lumotlari yetarli emas, chunki tashkilotning moliyaviy holati haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun qo'shimcha ko'rsatkichlar talab etiladi.

Har bir ko'rsatkich bo'yicha oraliq tugatish balansini uchun ikki hisobot davri ma'lumotlari taqdim etilishi shart. Biroq, ular ma'lum darajada mos kelmasligi mumkin, zero majburiyatlar ularning to'lov muddatiga emas, balki qonuniy belgilangan to'lov navbatligiga ko'ra guruhlangan. Shuning uchun, hisobotdan oldingi davr ma'lumotlari tegishli tarzda to'g'rilab chiqilishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada to'lovga qobiliyatsizlik holatidagi korxonalarda tugatish balansini tuzish xo'jalik yurituvchi subektlarning tugatish balansini tuzish amaliyotitrofficha o'rganildi. Tugatish balansini shaklini takomillashtirish va uning aniq, shaffof bo'lishi uchun huquqiy va buxgalteriya standartlari bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqildi.



Shuningdek, tadqiqot doirasida to'lovga qobiliyatsiz korxonalar misolida tugatish balansini tuzish jarayonidagi muammolar va ularning iqtisodiy oqibatlarini o'rganildi. Bu tadqiqotlar moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirish va kreditorlar bilan munosabatlarda shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-apreldagi O'RQ-763-sonli "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi Qonuni, <https://lex.uz/docs/5957612>
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, <https://lex.uz/acts/111189>
3. Давлетов, Икрам. «Совершенствование методологических аспектов составления промежуточного ликвидационного баланса.» Экономическое развитие и анализ 2.1 (2024): 328-335.
4. Исламов, Кудратилла. «Порядок совершенствования механизма ликвидации неплатежеспособных предприятий (предприятий-банкротов) и списания безнадежной налоговой задолженности.» Экономическое развитие и анализ 1.5 (2023): 103-111.
5. Дусмуратов, Раджапбай, and Икрам Давлетов. «Бизнесни тугатиш: тугатиш массаси ва уни шакллантириш босқичлари.» Iqtisodiyot va ta'lim 25.1 (2024): 330-337.
6. Шолбан, Любовь Хертековна, and Галина Васильевна Максимова. «Методика составления промежуточного ликвидационного баланса.» Вестник НГУЭУ 4 (2018): 126-134.
7. Фейлинг, Т. Б. «Фейлинг ТБ Антикризисное управление. Курс лекций: учебное пособие для студентов, обучающихся по направлению подготовки 38.03. 02 «Менеджмент»[Текст].—СПб.: РГГМУ, 2016.—134 с.» (2016).
8. Raximov, M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili: O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod Moliya. (2020). 517 b.
9. Abdusalomova N.B. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 944 b.
10. Abduvaxidov F.T., Qoziyev I.N., Dadabayev Sh.X. Buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: TDIU, 2019. - 403 b.
11. Sharipov B.R. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2024 – 337 b.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 10

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---